

GIDROMETEOROLOGIK TERMINLARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Qurbonova O. - Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

1-bosqich tayanch doktoranti (PhD)

***Annotatsiya.** Ushbu maqola gidrometeorologik terminlarning lingvistik xususiyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada gidrometeorologik terminlarning tuzilishi (oddiy, yasama, murakkab), semantikasi (aniqlik, bir ma'nolilik, tizimlilik) va qo'llanilishi (ilmiy adabiyotlar, o'quv qo'llanmalar, normativ hujjatlar, ommaviy axborot vositalari) ko'rib chiqilgan. Maqola gidrometeorologiya sohasidagi mutaxassislar, tilshunoslar va terminologiya bilan qiziquvchi barcha shaxslar uchun foydali bo'lishi mumkin.*

***Kalit so'zlar:** term, scientific and technical terms, terminology, terminologist scientists, hydrometeorological terms.*

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ГИДРОМЕТЕОРОЛОГИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ

Курбанова О. – 1 курс PhD студент Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы

***Аннотация.** Статья посвящена анализу лингвистических особенностей гидрометеорологических терминов. В статье рассматриваются структура (простая, производная, сложная), семантика (точность, однозначность, системность) и применение (научная литература, учебники, нормативные документы, средства массовой информации) гидрометеорологических терминов. Статья может быть полезна специалистам в области гидрометеорологии, лингвистам и всем интересующимся терминологией.*

***Ключевые слова:** термин, научно-технические термины, терминология, ученые-терминологи, гидрометеорологические термины.*

LINGUISTIC FEATURES OF HYDROMETEOROLOGICAL TERMS

Kurbanova O. – 1st year PhD student of the Tashkent State University of the Uzbek language and literature

Annotation. *This article is devoted to the analysis of the linguistic features of hydrometeorological terms. The article examines the structure (simple, derived, complex), semantics (precision, unambiguity, systematicity) and application (scientific literature, textbooks, regulatory documents, mass media) of hydrometeorological terms. The article may be useful for specialists in the field of hydrometeorology, linguists and all those interested in terminology.*

Key words: *name, surname, nickname, profession, time and space, society, polygenesis.*

Bugungi kunda O'zbekistonda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar sababli har bir sohaga alohida e'tibor qaratilmoqda, shu jumladan, gidrometeorologiya tizimidagi o'zgarishlar va yangiliklarni e'tirof etib o'tish lozim. Bunday yangilanishlar ta'siri o'laroq o'zbek tili leksikologiyasiga internatsional terminlar va neologizmlar tez sur'atlarda kirib kelmoqda. Bu jarayon esa o'z navbatida soha mutasaddilarining o'z kasbiga oid tushunchalar va terminlarning aniq ifodasini bilishlarini va shu orqali bilim-ko'nikmalarini oshirishlariga turtki bermoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.11.2020 yildagi "O'zbekiston Respublikasi gidrometeorologiya xizmati faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 4896-son Qarori Gidrometeorologiya sohasida tub burilish ro'y berishiga sabab bo'ldi. Qaror 25 banddan iborat bo'lib, u shunday jumlar bilan boshlanadi: "So'nggi yillarda gidrometeorologiya xizmatini rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va aholini gidrometeorologik ma'lumotlar bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirildi.

Hozirgi vaqtda milliy gidrometeorologiya xizmati 330 dan ortiq gidrometeorologik kuzatuvlar va atrof tabiiy muhit ifloslanishi monitoringini olib boruvchi punktlarni birlashtirib, ular yordamida 240 turdan ortiq prognostik, sun'iy yo'ldoshlardan olinadigan, tahliliy, ixtisoslashtirilgan va ma'lumotnoma tusidagi gidrometeorologik mahsulotlar tayyorlanishi yo'lga qo'yilgan.

Shu bilan birga, suv va qishloq xo'jaligi, energetika, shaharsozlik, sanoat, transport va turizm kabi ob-havoga bog'liq iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishi va faoliyat ko'rsatishiga ko'maklashuvchi gidrometeorologik xizmatlar sifati va ma'lumotlarning o'z vaqtida taqdim etilishiga salbiy ta'sir etuvchi qator muammolar mavjudligi ushbu sohaga alohida e'tibor qaratishni taqozo etmoqda."

Shuningdek mazkur qarorning quyidagi bandlariga alohida e'tibor berilishi lozim: "11. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va O'zgidrometning 2021/2022 o'quv yilidan boshlab Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida Gidrometeorologiya fakultetini tashkil etish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

12. Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha "El-yurt umidi" jamg'armasi 2021-yildan boshlab belgilangan tartibda O'zgidrometning yuqori salohiyatli xodimlarini yetakchi xorijiy ta'lim, ilmiy va ixtisoslashtirilgan muassasalarda o'qitish, malakasini oshirish hamda stajirovka o'tashini tashkil etsin." ¹

Bundan ko'rinib turibdiki, gidrometeorologiya jabhasida qilinishi kerak bo'lgan ishlar hali juda ko'p. Gidrometeorologiya fani va sohasi bo'yicha mutaxassislari, darsliklari, o'quv qo'llanmalar, lug'atlar kam sonli bo'lib, bori ham asosan rus tilidan tarjima qilingan. Bundan kelib chiqadiki, o'zbek tilshunoslari va tarjimonlari gidrometeorologiya mutaxassislari bilan hamkorlikda kitoblar va qo'llanmalar chiqarishlari soha rivoji uchun yangi bir bosqich bo'lib hisoblanadi.

Gidrometeorologiya - yerning atmosferaviy va gidrologik shart-sharoitlariga aloqador jarayonlarni o'rganadigan fan bo'lib, uning rivojlanishi aniq va standartlashtirilgan terminologiyani talab qiladi. "Gidrometeorologiya" so'zi quyidagi uchta yunoncha so'zlarning birikmasidan kelib chiqqan, ya'ni "gidro" (ὑδωρ)- suv, "meteoros" (μετέωρος)-atmosfera osmonida muallaq turuvchi yoki osmon hodisasi va "logos" (λόγος)-so'z, bilim, o'rganish degan ma'nolarni anglatadi.

-
1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.11.2020 yildagi "O'zbekiston Respublikasi gidrometeorologiya xizmati faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 4896-son Qarori

Shunday qilib, "gidrometeorologiya" so'zma-so'z tarjima qilinganda "suv va atmosfera hodisalarini o'rganish" degan ma'noni anglatadi. Gidrometeorologik terminlar nafaqat soha mutaxassislari o'rtasida tushunishni osonlashtiradi, balki ilmiy tadqiqotlar va amaliy faoliyat samaradorligini oshiradi. Ushbu maqolada gidrometeorologik terminlarning lingvistik xususiyatlari, ularning tuzilishi, semantikasi va qo'llanilishini tahlil qilish ko'rib chiqiladi.

Gidrometeorologik terminlar haqida so'z yuritishdan oldin ilmiy-texnik terminlarga to'xtalib o'tish lozim deb o'ylaymiz. Ilm-fan va texnika sohasidagi

tezkor taraqqiyot ilmiy-texnik terminlarning doimiy ravishda yangilanib, takomillashib borishini taqozo etadi. Ushbu terminlar sohaga oid bilimlarni aniq va ixcham tarzda ifodalashga xizmat qiladi hamda ushbu bilim va tushunchalarni yetkazish uchun ilmiy va texnik fanlar sohalarida ishlatiladigan maxsus til va lugʻatlardan foydalanadi. Ushbu turdagi terminologiya olimlar va tadqiqotchilar oʻrtasida aniq muloqot qilish, murakkab gʻoyalar turli tillar va madaniyatlarda toʻgʻri ifodalanishi va tushunilishini taʼminlash uchun zarurdir. Ilmiy-texnik terminlar boshqa sohalar terminlaridan farq qiluvchi bir qator xususiyatlarga ega:

- Aniqlik va bir maʼnolilik: Termin bir xil tushunchani ifodalashi va turli talqinlarga yoʻl qoʻymasligi lozim. Bu ilmiy bahslarda va texnik hujjatlarda chalkashliklarning oldini olishga yordam beradi.

- Tizimlilik: Terminlar oʻzaro bogʻliq boʻlgan tushunchalar tizimining bir qismi hisoblanadi. Ular sohaning umumiy kategoriyalari va tamoyillariga mos kelishi kerak.

- Ixchamlik: Terminlar qisqa va esda qolarli boʻlishi lozim, bu esa ularni oson eslab qolish va ishlatish imkonini beradi.

- Umumiylik (internatsionallik): Koʻpgina ilmiy-texnik terminlar lotin yoki yunon tilidan olingan boʻlib, bu ularning turli tillarda bir xil maʼnoda qoʻllanilishini taʼminlaydi.

Ilmiy-texnik terminlar sohadagi tushunchalar va qonuniyatlarni aniq va ixcham tarzda ifodalashga yordam berishi orqali olimlar, muhandislar va texnik xodimlar oʻrtasida samarali aloqani taʼminlaydi. Ilmiy-texnik terminlar sohaga oid bilimlarni tartibga solishga va ularni qulay tarzda taqdim etishga imkon beradi hamda oʻquv jarayonida talabalarga yangi tushunchalarni oʻrgatishga yordam beradi.

Ilmiy-texnik terminlar ilmiy kommunikatsiyaning muhim qismi hisoblanadi. Ular ilmiy maqolalarda, texnik hujjatlarda, oʻquv qoʻllanmalarda va boshqa ilmiy nashrlarda qoʻllaniladi. Toʻgʻri tanlangan va aniq taʼriflangan terminlar ilmiy ishning sifatini oshiradi va uning tushunilishini osonlashtiradi.

Ilmiy-texnik terminlarni standartlashtirish ilmiy kommunikatsiyaning samaradorligini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Standartlashtirish terminlarning bir xil maʼnoda qoʻllanilishini taʼminlaydi va turli talqinlarga yoʻl qoʻymaydi. Koʻpgina davlatlarda terminlarni standartlashtirish boʻyicha maxsus tashkilotlar faoliyat yuritadi.

Ilmiy-texnik terminlar ilm-fan va texnika sohasidagi bilimlarni ifodalashning muhim vositasidir. Ularning aniqligi, tizimliliigi va ixchamligi ilmiy kommunikatsiyaning samaradorligini ta'minlaydi. Terminlarni to'g'ri tanlash va ulardan foydalanish ilmiy ishning sifatini oshiradi va soha mutaxassisleri o'rtasida tushunishni osonlashtiradi.

Terminlarning paydo bo'lishi haqidagi nazariyalardan ma'lum bo'ladiki, gidrometeorologik terminlar ham sintaktik-leksik, derivatsion, sintagmatik usullar natijasida hosil bo'ladi.

Ma'lum bo'ladiki, ilmiy bilimlarning kengayib borishi bilan nazariy jihatdan murakkab atamalar ham iste'molga kiritila boshlanadi. Murakkab atamalar nafaqat muayyan tizimdagi tushuncha mazmunini to'liq ifodalaydi, nazariy jihatdan tushunchaning mazmunini ifodasini tilda to'liq voqelantiradi. Bu zamonaviy ta'lim sistemasida terminlarning shakllanishi, aniq nomlanishi, semantik-sintatik strukturasida keng namoyon bo'ladi.²

Adabiy til va terminologiyaning sintaktik usul bilan o'zaro bog'liqligi masalasini o'rgangan terminshunos V.P.Danilenko ushbu tizimda turli farqlanishlar mavjudligini ta'kidlaydi: "Gap shundaki, so'z birikmalarining leksikalashuvi bilan murakkab va qo'shma so'zlar hosil bo'ladi, ikkinchidan, leksik birliklardan tashkil topgan qo'shma terminlar ikki yoki undan ortiq so'zlarning ishtirokidan hosil bo'ladi."³

2 Husanxo'jayev O. "Pedagogik terminlarning semantic-struktur va lingvopoetik tadqiqi" Monografiya Namangan, 2024

3 Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. – М.: Наука, 1977. – С. 170.

Shuningdek, V.P.Danilenko kuzatishlarini quyidagi fikrida ham bayon etadi: "Qariyb barcha soha terminologiyasida birikma terminlar miqdor jihatidan muhim, yuqori o'rinlardan birini egallaydi." Bu fikrni terminologiyaga oid tadqiqotlar ham tasdiqlaydi.⁴

S.B.Grinev, V.N.Proxorova singari tilshunoslar terminologiyani sintaktik derivatsiya natijasida turg'un so'z birikmasi hosil bo'lgan deb ta'kidlaydilar va so'zni murakkab ekvivalentiga aylanib ketadigan erkin ibora deb biladilar. Ularning qarashlaricha, terminlar yasashida bu usullar zamonaviy mahsuldir.⁵

Tarkibli terminlar va atamalarning farqlab o'rganilishi ularning semantik xususiyatlari bilan bog'liqdir, sintaktik shakllariga ko'ra ular mushtarak qoliplar

sathiga sigʻadi. Boshqacha aytganda, tarkibli atamalar ham, tarkibli terminlar ham bir xil leksik sintagma qolipida keladi. Ana shu bois ularning derivatsion xususiyatlari ham mushtarakdir. ⁶

Gidrometeorologik terminlar tuzilishiga koʻra oddiy, yasama va murakkab boʻlishi mumkin:

1. **Oddiy terminlar:** Bitta oʻzakdan iborat boʻlib, asosiy gidrometeorologik tushunchalarni ifodalaydi. Misol uchun: *bugʻ, bulut, yogʻin, muz.*

2. **Yasama terminlar:** Oʻzakka affikslar qoʻshish orqali hosil qilinadi va tushunchaning xususiyatini, darajasini yoki boshqa belgilarini ifodalaydi. Misol uchun: *bugʻlanish, bulutli, yogʻingarchilik, muzlik.*

3. **Murakkab (qoʻshma) terminlar:** Ikki yoki undan ortiq oʻzaklardan iborat boʻlib, murakkab gidrometeorologik hodisalarni yoki jarayonlarni ifodalaydi. *atmosfera bosimi, dengiz oqimi, iqlim oʻzgarishi, havo harorati.*

4. **Abbreviaturalar (qisqartmalar):** *Boshgidromet (Gidrometeorologiya bosh boshqarmasi), Kuzatish daftarchasi (KG-IM(n)).*

4 Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. – М.: Наука, 1977. – С. 170.

5. Мадвалиев А.П. Узбекская химическая терминология и вопросы её нормализации: Дисс.... канд. филол.наук. – Ташкент, 1986. – С.15; Фуломова Г.Ё. Ўзбек юридик терминологиясининг истиклол даври тараққиёти: Филол. фан. номз.... дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – Б. 15; Юлдашев И.Ж. Ўзбек китобатчилик терминологияси: шаклланиши, тараққиёти ва тартибга солиш: Филол. фан. д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – Б. 20.
6. Турниёзов Н.Қ. Ўзбек тили деривацион синтаксисига кириш. – Самарқанд, 1990. – Б. 42-43.

Gidrometeorologik terminlar semantik jihatdan aniqlik, bir maʼnolilik va tizimlilikka ega boʻlishi kerak. Bunda termin aniq va yagona tushunchani ifodalashi, faqat bitta maʼnoga ega boʻlishi hamda gidrometeorologiya sohasidagi tushunchalar tizimida oʻz oʻrniga ega boʻlishi kerak.

Gidrometeorologik terminlar ilmiy adabiyotlarda, oʻquv qoʻllanmalarda, normativ hujjatlarda va ommaviy axborot vositalarida keng qoʻllaniladi. Terminlar ilmiy maqolalarda, monografiyalarda va konferensiya materiallarida aniq va standartlashtirilgan maʼnoda ishlatiladi. Ular oʻquv qoʻllanmalarda talabalar va oʻquvchilar uchun tushunarli va sodda tilda izohlanadi. Terminlar qonunlar,

standartlar va yo'riqnomalarda aniq va qat'iy ma'noda ishlatiladi. Ommaviy axborot vositalarida terminlar keng auditoriyaga tushunarli bo'lishi uchun soddalashtiriladi va izohlanadi.

Xulosa qilib aytilganda, gidrometeorologik terminlar aniqlik, bir ma'nolilik va tizimlilik kabi lingvistik xususiyatlarga ega bo'lishi kerak. Terminlarning to'g'ri qo'llanilishi soha mutaxassislari o'rtasida samarali kommunikatsiyani ta'minlaydi va ilmiy bilimlarning keng tarqalishiga yordam beradi. Gidrometeorologiya sohasining rivojlanishi yangi terminlarning paydo bo'lishiga va mavjud terminlar ma'nolarining o'zgarishiga olib keladi, shuning uchun terminologik tadqiqotlar doimiy ravishda olib borilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.11.2020 yildagi "O'zbekiston Respublikasi gidrometeorologiya xizmati faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 4896-son Qarori
2. Husanxo'jayev O. "Pedagogik terminlarning semantic-struktur va lingvopoetik tadqiqi" Monografiya Namangan, 2024
3. Sabirov A. A. "Termin va terminologiyaga berilgan ta'riflar" CENTRAL ASIAN ACADEMIC JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH ISSN: 2181-2489 VOLUME 2 | ISSUE 6 | 2022 Scientific Journal
4. Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. – М.: Наука, 1977. – С. 170.
5. Мадвалиев А.П. Узбекская химическая терминология и вопросы её нормализации: Дисс.... канд. филол.наук. – Ташкент, 1986. – С.15; Гуломова Г.Ё. Ўзбек юридик терминологиясининг истиқлол даври тараққиёти: Филол. фан. номз.... дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – Б. 15; Юлдашев И.Ж. Ўзбек китобатчилиқ терминологияси: шаклланиши, тараққиёти ва тартибга солиш: Филол. фан. д-ри... дисс. автореф. – Тошкент. 2005. – Б. 20.
6. Турниёзов Н.Қ. Ўзбек тили деривацион синтаксисига кириш. – Самарқанд, 1990. – Б. 42-43.

FOYDALANILGAN INTERNET SAYTLARI RO'YXATI

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Terminologiya>